XIV-XVIII asrlarda Yevropa bozorlarida chinni buyumlar sotila boshlandi. XVIII asrda Petr-I chinni ishlab chiqarish uchun Yevropadan ko'plab kulollarni Rossiyaga taklif etdi. Rossiyada qora chinni ishlab chiqarildi. M. Lomonosov chinni yaratish bo'yicha ancha izlanishlar olib bordi. U ellikka yaqin chinni ishlab chiqarish bo'yicha nazariy tavsiyalar ishlab chiqdi. Lekin ular amalga oshmay qolib ketdi.

1747 yili rus olimi D. Vinogradov tomonidan qattiq chinni olish uslubini ishlab chiqdi. 1753 yili Peterburgda "Neva" chinni ishlab chiqarish korxonasi ishga tushadi. O'rta Osiyoda chinni buyumlar ancha qadimdan Xitoy, Eron va Rossiyadan keltirilgan.

O'zbekistonda Rishton kulollari tomonidan chinniga yaqin bo'lgan buyumlar yaratadilardi. 1953 yili Toshkentda 60-70 yillarda Samarqand va Quvasoyda chinni zavodlari, Angrenda keramika zavodlari ishga tushuriladi.

Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos turlari haqiqiy o'zbekona nomlari, ishlash texnologiyalari va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta sekin unutilib ketish arafasida turibdi. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy meqnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'atimiz obidalarini ko'z qorachiqimizdek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Kulolchilik loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Zero tuproq





insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning oliy ko'rinishi san'atning zaminidir. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Kulolchilik xunari loydan madaniy buyumlar jumlasidan piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlanadigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Mahsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan xar xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan, aniqroq qilib aytganda neolit davrining boshlaridayoq tushunib yetganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxonda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi uch ming yillikni boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar. VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa erlarida topilgan kulolchilikmisolida ko'rish mumkin. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutaffakkirlar, ya'ni Abu Ali Ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Ro'dakiylar etishib chiqdi. Butun dunyoga mashxur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivovojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo hududida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo'la boshladi.

O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni yanada tezroq ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislasha bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar. XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi.

Ma'lumki, 1997 yili O'zbekiston Badiiy Akadimiyasini tashkil etilishi Mustaqil O'zbekistonimizning Madaniy hayotida muhim voqea bo'lib, u mamlakatda badiiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirishi, badiiy me'rosni o'rganish, san'at va madaniyatni zamonaviy kamolotini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.



O‘zbek madaniy merosga, ayniqsa kulolchilik san’ati bo‘yicha katta me‘rosga egadirki, bu me‘rosni o‘rganish va ijodiy rivojlantirish bugungi kunda asosiy ta‘limiy va tarbiyaviy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Davr talabidan kelib chiqilgan xolda kulolchilik san’atini an’anaviy va noan’anaviy texnologiyasi va uslublarini rivojlantirishni alohida e‘tiborga olinib unga shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Shularga ko‘ra kulolchilik san’ati ustalari- rassomlari o‘z ijodlarida an’anaviy uslublarni qayta tiklash bilan birga yangi talqindagi noan’anaviy uslublarda ijod qilishga ham kirishmoqdalar. 1991-2005 yillarda juda ko‘plab rassomlar noan’anaviy kulolchilik san’ati asarlarini yaratdilar. 1996 yili Toshkentda noan’anaviy kulolchilik san’ati bo‘yicha “Buyuk ipak yo‘li XX asr yangi falsafa” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro simpozumi va uning yakunidagi ko‘rgazmada Sharq bilan G‘arb madaniyatini, aniqrog‘i kulolchilik san’atini uchrashuvi bo‘ldi. Bu ko‘rgazmada O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Fransiya, Latviya va Shveytsiya kabi mamlakatlarni zamonaviy, noan’anaviy asarlari bilan qatnashgan rassomlar ijodida ko‘rindi-ki, bu asarlarda zamon san’ati, madaniyati yutuqlari va falsafiy dunyosi ifoda etilgan. Ko‘rgazmada namoyish etilgan O‘zbekistonlik kulol-rassomlardan N.Quziyeva, X.Mirzayeva, Sh.Muminova, S.Smol’yankov, X.Xudoyberdiyev, B.Gulov asarlari zamon ruhi bilan, yangi dunyoviy san’at falsafasini ifoda etilgani kuzatiladi. Samarqandlik kulol usta X. Xudoyberdiyevning “Saraton” kompozitsiyasida Osiyo yozining g‘oyat kuchli harorati, qumliyo dashtliklar, o‘lkamizning an’anaviy loy suvoqli uylari vositasida o‘ta kuchli falsafiy mushohadaga boshlaydi.

Toshkentlik kulol-rassom X.Mirzayevaning “Soat” mavzusidagi badiiy-kompozitsiyasida esa odam zotiga g‘oyat zarur bo‘lgan vaqtning shiddatli va to‘xtamas qadami. Ulkan qum soati mazmunida, ramziy holatda ifoda etiladi. Bu asar tomoshabinni mantiqiy fikrlashga chorlaydi. Bu ko‘zga ko‘rinmas bo‘shliqni shamotning bir qismi vositasida anglab olishga imkon beradi. Shular qatorasiga N.Quziyevaning “Erkak va ayol”, S.Smolyakovning “Zamin xotirasi”, B.G‘ulovning “Chanqovuz”, Sh.Mo‘minovanning “Voha” kabi asarlari ham tomoshshabinni falsafiy fikr yuritishga undaydi. Bu asarlar o‘zlarining hajmi, qurilishi, shakli, tuzilishi, rang tusi va kompozitsiyasidan qat’iy nazar rassom ular zamirada xalqimizning milliy ma’naviy dunyosini tarixiy-taraqqiyoti, urf-odatlarini, aqlu-zakovati va san’ati-madaniyatini ilmiy asosda, ijodiy muhitda, obrazli tasvirlarda ifoda etadi.





Buxorolik kulol B.G‘ulomov “Chanqovuz” asarlari o‘tmishda suv uchun qo‘llanib kelingan ko‘zani o‘ziga xos tasviriy holatini yaratadi. Asarda ko‘zani bosh qismini osmonga cho‘zilgan holatidagi ikki qomati orasida musiqa asbobini o‘sib chiqqan holati tasvirga olinadi. Rassom bu asarni yaratishda qochirimlarga boy xalq madaniy me‘rosidan foydalanadi. Asardagi afsonaviy mahluqni ertaklar ruhidagi badiiy naqsh va shakl, tasvirlar bilan bezaydi. So‘ngi yillarda amaliy san‘atga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan. “O‘zbekiston hunarmandchiligi buyumlari” ko‘rgazmalarida namoyish etilayotgan noan‘anaviy kulolchilik buyumlari ham tobora ko‘payib bormoqda. Ular orasida M.Mirkarimning “Laganlar”, L.Kozlovaning “Bayram”, “Shodlik”, “Afsonadagi qiz” kabi asarlari ham yil fasllari, odamlarning dunyoqarashlari, afsonaviy motivlar asosida ifoda etilgan.

Amaliy san‘at ko‘rgazmalarni kuzatar ekanmiz, ularda mamlakatimiz kulol ustalarini noan‘anaviy uslublarda yaratilgan san‘at asarlarida mavzularning rang-barangligi, asarning yaratilishi, materiallari, syujetlarini zamon talabiga mosligini ko‘rish bilan ijodning yangi, noan‘anaviy xarakterini anglab olasiz. Kulolchilik san‘ati bo‘yicha ijodkor maktablar: Rishton, G‘ijdivon, G‘urumsaroy, Xrazm, Samarqand kabi kulolchilik markazlari an‘anaviy texnologik va uslublarni ham tobora takomillashtirib, yangidan-yangi, g‘oyat kuchli badiiy mazmunga ega bo‘lgan san‘at asarlarini yaratmoqdalarki, ular oldidan tomoshabin keta olmay, undagi g‘oyat nozik, nafis, bejirim bezak kompozitsiyalariga mahliyo bo‘layotganini ko‘rasiz.

Hozirgi zamon kulolchiligining noan‘anaviy texnologiya va uslubida yaratilgan asarlar tomoshabinni mantiqiy tafakkurga, falsafiy mushohadaga boshlasa, an‘anaviy milliy kulolchilik, qadriyatimiz va an‘analarimizga hurmat, ehtirom, ota-bobolar san‘atiga ta‘zimga chorlaydi. Mustaqillik yillarida yaratilgan: M.Rahmatovning “Qo‘shquloqli ko‘za” (G‘urumsaroy), M.Turopovning “Lagan” (G‘urumsaroy), Sh.Yusupovning “Lagan” (Rishton), Alisher va Abdulla Narzullayevlar “G‘ijdivon sopol buyumlari” (Samarqand), A.Matchonovning “Bodiya-Lagan” (Xorazm), B.Barotboyevning “Laganlar” (Qo‘qon) kabi zamonaviy motivlarda an‘anaviy uslublarda yaratilgan bu asarlari o‘zining materiali konstruktsion shakli-shamoili va ularni yaratishdagi sir, bezak, tasvir kompozitsiyasi, rang va bo‘yoqlardagi ham an‘anaviy texnologiyani uyg‘unligi ham an‘anaviy, ham noan‘anaviy texnologiyani uyg‘unligi ham buyumlar badiiy uyg‘unligini ta‘minlaydi.

Kulolchilik san‘ati esa asrlar davomida qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratib, undan nafaqat uy-ro‘zg‘or buyumi sifatida, balki Sharqning eng qadimiy hamda





navqiron san'at turlaridan biriga aylangan amaliy bezak san'ati turlaridan biridir. Bu qora loy, sahovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha extiyojini qondira oladigan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega.

Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning ko'rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibliigi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora, xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulxanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar.

Kulolchilik charxi miloddan avvalgi III ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin bu san'at turi bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar.



Kulol Sh.Azimov ijodi.



Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo'yilgan. Enolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivojlangan va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlangan. VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya'ni Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Firdavsiy, Rudakiylar yetishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi.

XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo sarhadlarida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san'atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. O'rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o'zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli yerlarda turlicha rivojlandi. O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni idishlarni ko'plab olib keltirilishi O'rta Osiyo hududlarida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisbz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular sopol idishlarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va ta'sirchanligi bilan shuhrat qozondilar.

1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o'quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil





etilib u yer xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. 1943 yilda Shahrizabzda o'quv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi. Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sitqidildan o'rgatdilar. Bular rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, g'ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, toshkentlik Turob Miraliev, shahrizabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Hazratqulov va boshqalar shular jumlasidan. Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. O'tgan asrning 40-yillarda G'ijduvondagi "Namuna", Rishtonda "Yangi hayot" artellari faqat mamlakatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur bo'ldi.

Ayniqsa, kulolchilikni tatbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik maktabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

XX asrda O'zbekistonda kulolchilik mahsulotlarini an'anaviy tarzda ishlab chiqarish sekinlik bilan pasayib, ularning o'rniga sanoat mahsulotlari egallay boshlagan. Buning oqibatlarini hunarmandchilikning mazkur turi umumiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, sirlangan kulolchilik buyumlari o'ziga xos xususiyatlarini, bezak madaniyatini yo'qota boshlagan, an'analarining davomiyligi buzilishiga olib kelgan. Natijada kundalik turmushda keng qo'llanib kelgan maishiy predmetlar, jumladan, kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish barham topa boshlagan.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabining o'ziga xosligi texnologik omil bilan bog'liqdir. Ushbu maktab markazlari uslubining ichki omillari ko'proq "afrosiyob" sopoli an'analariga asoslanadi. O'zbekiston miq'yosida XX asr ikkinchi yarmidagi xalq xo'jaligini rivojlantirish rejalari (chinni zavodlari va kulolchilik korxonalarini barpo etilishi) va shaharlar ahamiyatining oshish jarayoni an'anaviy Toshkent va Samarqand kulolchilik markazlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xozirgi kunda Buxoro-Samarqand an'anaviy kulolchilik maktabini asosan G'ijduvon, Urgut markazlari namoyon etmoqda. Ushbu markazlarda keng qo'llaniladigan naqshlardan biri "bofta" yoki "charbargi davra" aylana naqshidir.


Research Science and
Innovation House





Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Y.Qosimov. Qadimgi Farg‘ona sirlari. N., 1992 y.
2. A.Anorboev. Farg‘ona qadim va o‘rta asrlarda. S. 1994 y.
3. Xalq amaliy san‘ati. 1997 yil 30 may “22-sonli.
4. N.Abdullaev. San‘at tarixi. T., 1987-2001 yil.
5. N.Abdullaev. O‘zbekiston san‘ati tarixi. T., 2007 yil
6. A.Turg‘unov.O‘zbek kulolchiligi san‘atining hududiy xususiyatlari.T. 2001.
7. www.pedagog.uz/



**Research Science and
Innovation House**





VEKTORLAR USTIDAGI CHIZIQLI AMALLAR

Raxmatov Alisher Shirinboyevich. Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrası o’qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqolada vektorlar ustida bajariladigan chiziqli amallar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Vektor tushunchasi, ularning algebraik va geometrik xossalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, vektorlarni qo‘shish, ayirish, skalyar va vektor ko‘paytmalari kabi asosiy amallar tahlil qilinadi. Chiziqli algebra va geometriyada vektorlarning qo‘llanilishi ham yoritilib, amaliy misollar orqali tushuntirishlar beriladi. Maqola chiziqli algebra bilan shug‘ullanuvchilar va uni o‘rganishni istaganlar uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Chiziqli algebra, vektorlar qo‘shilishi, vektorlar ayirilishi, skalyar ko‘paytma, vektor ko‘paytma, chiziqli kombinatsiya, ortogonal vektorlar, baza vektorlar, koordinata sistemasi.

Kirish. Vektorlar matematikaning turli sohalarida, ayniqsa, algebra, geometriya va fizikada muhim o‘rin tutadi. Ular yo‘nalishli kattaliklar bo‘lib, miqdor va yo‘nalishga ega bo‘lgan obyektlar sifatida qaraladi. Vektorlar ustida bajariladigan amallar esa ularning xususiyatlarini o‘rganishda va amaliy masalalarni yechishda muhim ahamiyatga ega.

Chiziqli algebra vektorlar ustidagi chiziqli amallar bilan shug‘ullanadi. Bu amallar qatoriga vektorlarni qo‘shish, ayirish, skalyar ko‘paytma, vektor ko‘paytma va boshqa operatsiyalar kiradi. Ushbu maqolada vektorlarning asosiy tushunchalari va ular ustida bajariladigan chiziqli amallarni ko‘rib chiqamiz.

Tekislikda $\vec{a} = \overrightarrow{EF}$ va A nuqta berilgan bo‘lsin. A nuqtadan EF to‘g‘ri chiziqqa parallel d to‘g‘ri chiziq o‘tkazamiz. (1-chizma)



1-chizma



A nuqtadan ko'rsatilgan yo'nalishda \vec{a} vektor uzunligini o'lchab qo'yib B nuqtani topamiz. $\vec{EF} = \vec{AB} = \vec{a}$. Shunday qilib \vec{a} ni A nuqtadan qo'ydik, ya'ni ko'chirdik.


1-Ta'rif. Ikkita \vec{a} va \vec{b} vektorlarning yig'indisi deb, ixtiyoriy A nuqtadan \vec{a} vektorni qo'yib, uning oxiri B nuqtaga \vec{b} vektorni qo'yganda boshi \vec{a} vektorning boshi A nuqtada oxiri \vec{b} vektorning oxiri C nuqtada bo'lgan \vec{AC} vektorga aytiladi.

\vec{a} va \vec{b} vektorlarning yig'indisi $\vec{a} + \vec{b}$ kabi belgilanadi. (2- chizma)

Vektorlarni qo'shish ta'rifidan istalgan uchta A, B va C nuqtalar uchun

$$\vec{AB} + \vec{BC} = \vec{AC}$$

tenglik o'rinli bo'ladi. Bu tenglikni vektorlarni qo'shishning uchburchak qoidasi deyiladi.



2 - Ta'rif. \vec{a} , \vec{b} vektorlarning ayirmasi deb, shunday \vec{x} vektorga aytiladiki, ular uchun $\vec{b} + \vec{x} = \vec{a}$ tenglik o'rinli bo'ladi. U holda $\vec{x} = \vec{a} - \vec{b}$. (3- chizma)

Ikkita vektorning ayirmasi hamma vaqt mavjud va bir qiymatli aniqlanishini isbotlash mumkin.

3 - Ta'rif. $\vec{a} \neq \vec{0}$ vektorning $\alpha \in R$ songa ko'paytmasi deb quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi \vec{b} ga aytiladi va $\vec{b} = \alpha \cdot \vec{a}$ ko'rinishda yoziladi.

- 1) $|\vec{b}| = |\alpha| \cdot |\vec{a}|$;
- 2) \vec{b} vektor \vec{a} ga kollinear.
- 3) Agar $\alpha > 0$ bo'lsa \vec{b} va \vec{a} vektorlar bir xil yo'nalgan, agar $\alpha < 0$ bo'lsa, \vec{b} va \vec{a} vektorlar qarama- qarshi yo'nalgan bo'ladi.

1-teorema. Vektorlarni qo'shish va songa ko'paytirish quyidagi xossalarga ega.

1°. Agar \vec{A} va \vec{B} vektorlar to'plamiga tegishli bo'lsa u holda ularning eg'indisi ham shu to'plamga tegishli (yopiqlik)






$$2^\circ. (\vec{A} + \vec{B}) + \vec{C} = \vec{A} + (\vec{B} + \vec{C}) \text{ (qo'shishga nisbatan assotsiativ)}$$

3°. Ixtiyoriy \vec{A} vector uchun shunday $\vec{0}$ vector mavjudki ular uchun: $\vec{A} + \vec{0} = \vec{A}$ munosabat o'rinli hamda $\vec{0}$ vector qo'shishga nisbatan neytral element.

4°. Har bir \vec{A} vector uchun shunday \vec{E} vector mavjudki ular uchun:
 $\vec{A} + \vec{E} = \vec{0}$ (bunda \vec{E} ni \vec{A} ga qarama-qarshi vektor deyiladi va $\vec{E} = -\vec{A}$).

5°. $\vec{A} + \vec{B} = \vec{B} + \vec{A}$ (qo'shishga nisbatan kommutativ)

6°. Ixtiyoriy m haqiqiy son va ixtiyoriy \vec{A} , \vec{B} vectorlar uchun:
 $m(\vec{A} + \vec{B}) = m\vec{A} + m\vec{B}$



7°. Ixtiyoriy ikki haqiqiy α , β son va ixtiyoriy \vec{a} vector uchun:
 $(\alpha + \beta)\vec{a} = \alpha\vec{a} + \beta\vec{a}$

8°. Ixtiyoriy ikki haqiqiy α , β son va ixtiyoriy \vec{a} vector uchun:
 $(\alpha \cdot \beta) \cdot \vec{a} = \alpha \cdot (\beta \cdot \vec{a})$

9°. Ixtiyoriy \vec{a} vector uchun: $1 \cdot \vec{a} = \vec{a} \cdot 1 = \vec{a}$

Vektorlarning chiziqli bog'liqligi.

4-Ta'rif. Ixtiyoriy $\vec{A}_1, \vec{A}_2, \dots, \vec{A}_n$, vektorlar sistemasi va c_1, c_2, \dots, c_n , haqiqiy sonlar berilgan bo'lsin.

$$\vec{A} = c_1\vec{A}_1 + c_2\vec{A}_2 + \dots + c_n\vec{A}_n, \quad (1)$$

vektorni berilgan \vec{A} vektorlarning chiziqli kombinatsiyasi deyiladi. Bunda \vec{A} vektor c_1, c_2, \dots, c_n , vektorlar sistemasi orqali chiziqli ifodalangan deyiladi, c_1, c_2, \dots, c_n , sonlar chiziqli kombinatsiya koeffitsientlari deyiladi.

5-ta'rif. Ixtiyoriy \vec{A} va \vec{B} vektorlarning, k_1, k_2 haqiqiy sonlar bilan berilgan chiziqli kombinatsiyasi



$$k_1 \vec{A} + k_2 \vec{B} = \vec{0} \quad (2)$$

koeffitsentlarning kamida bittasi noldan farqli bo'lganda (2) bajarilsa, u holda \vec{A} va \vec{B} vektorlar sistemasi chiziqli bog'liq deyiladi.

Agar (2) tenglik k_1, k_2 sonlarning hammasi nolga teng bo'lgandagina o'rinli bo'lsa, \vec{A} va \vec{B} vektorlar sistemasi chiziqli erkli deyiladi.

2-teorema. Agar (1) vektorlar sistemasining biror vektori nol vektor bo'lsa, u holda bu vektorlar sistemasi chiziqli bog'liq bo'ladi.

Isbot. Faraz qilaylik $\vec{a}_k = \vec{0}$ bo'lsin, u holda $\alpha_k \neq 0, \alpha_1 = \alpha_2 = \dots = \alpha_{k+1} = \dots = \alpha_n = 0$, sonlar uchun $\alpha_1 \vec{a}_1 + \alpha_2 \vec{a}_2 + \dots + \alpha_n \vec{a}_n = \vec{0}$ munosabat o'rinli bo'ladi. Demak, ta'rifga asosan (1) vektorlar sistemasi chiziqli bog'liq.

3-teorema. Agar (1) vektorlar sistemasi chiziqli bog'liq bo'lsa, sistemaning kamida bitta vektori uning qolgan vektorlari orqali chiziqli ifodalanadi.

4-teorema. Ikkita vektor chiziqli bog'liq bo'lishi uchun ularning kollinear bo'lishi zarur va etarli.

5-teorema. Uchta vektor chiziqli bog'liq bo'lishi uchun ularning komplanar bo'lishi zarur va etarli.

Vektorlar ustidagi chiziqli amallar matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, ular turli sohalarda keng qo'llaniladi. Ushbu amallar ichida vektorlarning qo'shilishi, ayirilishi va skalyar ko'paytmasi asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari, vektorlarning chiziqli kombinatsiyasi va chiziqli bog'liqligi kabi tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega.

Chiziqli algebra va geometriyada vektorlarning xossalarini chuqur o'rganish turli ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali vosita hisoblanadi. Xususan, fizika, muhandislik, informatika va iqtisodiyot sohalorida vektorlar ustida chiziqli amallar keng qo'llanilib, murakkab tizimlarni tahlil qilish va modellashtirishda qo'l keladi.

Shunday qilib, vektorlar ustida chiziqli amallarni o'rganish nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy muammolarni hal qilish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.


Adabiyotlar ro'yxati

1. Axmedov A. A., Sodiqov R. S. "Geometriya" – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
2. Mahmudov N. "Matematik analiz va geometriya asoslari" – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018.





3. Qosimov I., O‘rozov M. "Geometriya: nazariya va amaliyot" – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi nashriyoti, 2020.
4. Xamidov U. "Matematik transformatsiyalar va ularning qo‘llanilishi" – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016.
5. Rashidov A., Norqulov B. "Geometriyaning asosiy tushunchalari va metodlari" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Muminov S. "Geometriya va uning amaliy ahamiyati" – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021.
7. Jo‘rayev N. "Simmetriya va transformatsiyalar nazariyasi" – Toshkent: Fan, 2017.
8. Karimov H. "Geometrik modellar va ularning fizikaga tatbiqi" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.



**Research Science and
Innovation House**





VEKTORLARNING SKALYAR KO'PAYTMASI.

Axatqulov Anvar Almasovich. Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada vektorlarning skalyar ko‘paytmasi tushunchasi, uning asosiy xossalari va qo‘llanilish sohalari ko‘rib chiqiladi. Skalyar ko‘paytma yordamida ikki vektor orasidagi burchakni aniqlash, vektorlarning ortogonal (o‘zaro perpendikulyar) ekanligini tekshirish va fizikadagi mexanik muammolarni hal qilish usullari tushuntiriladi. Shuningdek, skalyar ko‘paytmaning analitik ifodasi va uning geometriyadagi hamda algebraik hisob-kitoblardagi ahamiyati yoritiladi. Maqola matematika, fizika va muhandislik sohalarida vektor analiziga qiziquvchilar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: vektor, skalyar ko‘paytma, vektorlar algebra, geometriya, matematik amallar, vektorlarning ichki ko‘paytmasi, koordinatalarda skalyar ko‘paytma, trigonometrik bog‘liqlik, kosinus teoremasi.


Kirish. Matematik analiz va chiziqli algebra fanlarida vektorlar ustida turli amallar bajariladi. Ulardan biri — vektorlarning skalyar ko‘paytmasi bo‘lib, u geometriya, fizika va muhandislik sohalarida keng qo‘llaniladi. Skalyar ko‘paytma tushunchasi ikki vektor orasidagi burchakni aniqlash, proyeksiya hisoblash va mexanikaning ba’zi qonuniyatlarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada vektorlarning skalyar ko‘paytmasi tushunchasi, uning asosiy xossalari va amaliy qo‘llanilishi haqida so‘z yuritimiz.

Yuqorida, vektorlar ustidagi chiziqli amallar: vektorni qo‘shish va ayirish, vektorni songa ko‘paytirish amallari bilan tanishdik. Endi chiziqli bo‘lmagan yangi amal, vektorni skalyar ko‘paytirish amali bilan tanishaylik.

Fazoda (yoki tekislikda) \vec{a} va \vec{b} vektorlar berilgan bo‘lsin. O nuqtaga $\vec{a} = \overrightarrow{OQ}, \vec{b} = \overrightarrow{ON}$ vektorlarni qo‘yamiz (1-chizma).

Research Science and
Innovation House





1-chizma

O, Q, N nuqtalar orqali aniqlangan tekislikda, OQ va ON nurlar yordamida ikkita burchak aniqlanadi, bulardan biri φ ikkinchisi $2\pi - \varphi$.

Bu burchaklarning eng kichigini α va β vektorlar orasidagi burchak deb aytiladi va $(\vec{a} \vec{b}) = \varphi$ ko'rinishda belgilaymiz.

1-tarif. \vec{A} va \vec{B} vektorlarning uzunliklari bilan ular orasidagi burchak kosinusini ko'paytirishdan hosil bo'lgan son bu vektorlarning skalyar ko'paytmasi deb aytiladi. Vektorlarning skalyar ko'paytmasi $\vec{A} \cdot \vec{B}$ yoki \overline{AB} ko'rinishida yoziladi. Ta'rifga ko'ra

$$\vec{A} \cdot \vec{B} = |\vec{A}| |\vec{B}| \cos \theta, \quad (1)$$

Natija. Nol vektorning har qanday vektorga skalyar ko'paytmasi nolga teng.

Skalyar ko'paytma xossalari

1⁰. Ixtiyoriy ikkita vektor uchun $\vec{A} \cdot \vec{B} = \vec{B} \cdot \vec{A}$; (komutativ)

2⁰. Ixtiyoriy uchta \vec{A} , \vec{B} va \vec{C} vektorlar uchun $\vec{A} \cdot (\vec{B} + \vec{C}) = \vec{A} \cdot \vec{B} + \vec{A} \cdot \vec{C}$;

3⁰. Ixtiyoriy \vec{A} vektor uchun $\vec{A} \cdot \vec{A} = A^2 = |\vec{A}|^2$

4⁰. $\vec{a} \cdot \vec{a}$ con \vec{a} vektorning skalyar kvadrati deyiladi va a^2 kabi belgilanadi. $\sqrt{a^2}$ soni \vec{a} vektorning uzunligi deyiladi va $|\vec{a}|$ bilan belgilanadi.

5⁰. Agar $\vec{a} = 0$ bo'lsa, $a^2 = 0$.

Isbot. 1⁰-xossani isbotlaylik.

Ta'rifga ko'ra $\vec{a} \cdot \vec{b} = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cos(\vec{a} \wedge \vec{b})$
 $\vec{b} \cdot \vec{a} = |\vec{b}| \cdot |\vec{a}| \cos(\vec{b} \wedge \vec{a})$.

Kosinus juft funksiya ekanini e'tiborga olsak, u holda $\vec{a} \cdot \vec{b} = \vec{b} \cdot \vec{a}$.



3⁰-xossa, skalyar ko'paytma ta'rifiga ko'ra $(\lambda \vec{a}) \cdot \vec{b} = |\lambda \vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cos(\lambda \vec{a}, \vec{b})$, lekin $|\lambda \vec{a}| = |\lambda| \cdot |\vec{a}|$ va $\cos(\lambda \vec{a}, \vec{b}) = \cos(\vec{a}, \vec{b})$. Shuning uchun $(\lambda \vec{a}) \cdot \vec{b} = \lambda(\vec{a} \cdot \vec{b})$.

4⁰-xossa skalyar ko'paytma ta'rifidan

$$\vec{a} \cdot \vec{a} = |\vec{a}| \cdot |\vec{a}| \cos(\vec{a}, \vec{a}) = |\vec{a}|^2 \cos 0^\circ = |\vec{a}|^2 \quad |\vec{a}| = \sqrt{a^2}.$$

Agar \vec{a} va \vec{b} vektorlar perpendikulyar bo'lsa, skalyar ko'paytma nolga teng:

$$\vec{a} \perp \vec{b} \Rightarrow \vec{a} \cdot \vec{b} = 0 \quad (2)$$

Buning isboti ta'rifidan kelib chiqadi.

Ortanormallangan $(\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3)$ bazis uchun

$$\vec{e}_i \cdot \vec{e}_j = \begin{cases} 0, & i \neq j \\ 1, & i = j \end{cases} \quad i, j = 1, 2, 3 \quad (3)$$

Haqiqatan skalyar ko'paytma ta'rifidan

$$\vec{e}_i \cdot \vec{e}_j = |\vec{e}_i| \cdot |\vec{e}_j| \cos(\vec{e}_i, \vec{e}_j) = 1 \cdot 1 \cdot \cos \frac{\pi}{2} = 0$$

Xususiyl holda

$$\vec{e}_i \cdot \vec{e}_i = |\vec{e}_i|^2 = 1 \quad (4)$$

Koordinatalari bilan berilgan vektorlarning skalyar ko'paytmasi.

Uch o'lchovli vektor fazoda ortonormal bazis $(\vec{e}_1, \vec{e}_2, \vec{e}_3)$ berilgan bo'lsin, bu bazisga nisbatan $\vec{A}(A_1, A_2, A_3)$, $\vec{B}(B_1, B_2, B_3)$ koordinatalarga ega:

$$\begin{aligned} \vec{A} &= A_1 \vec{e}_1 + A_2 \vec{e}_2 + A_3 \vec{e}_3 \\ \vec{B} &= B_1 \vec{e}_1 + B_2 \vec{e}_2 + B_3 \vec{e}_3 \end{aligned}$$

\vec{A} va \vec{B} vektorlarning skalyar ko'paytmasini hisoblashda (2) va (4) larni e'tiborga olsak, quyidagilarga ega bo'lamiz.

$$\vec{A} \cdot \vec{B} = (A_1 \vec{e}_1 + A_2 \vec{e}_2 + A_3 \vec{e}_3) \cdot (B_1 \vec{e}_1 + B_2 \vec{e}_2 + B_3 \vec{e}_3)$$

Demak, koordinatalari bilan berilgan ikkita vektorning skalyar ko'paytmasi bu vektorlarning mos koordinatalari ko'paytmasining yig'indisiga teng. Ya'ni:

$$\begin{aligned} \vec{A} \cdot \vec{B} &= A_1 B_1 \vec{e}_1 \cdot \vec{e}_1 + A_1 B_2 \vec{e}_1 \cdot \vec{e}_2 + A_1 B_3 \vec{e}_1 \cdot \vec{e}_3 + \\ &+ A_2 B_1 \vec{e}_2 \cdot \vec{e}_1 + A_2 B_2 \vec{e}_2 \cdot \vec{e}_2 + A_2 B_3 \vec{e}_2 \cdot \vec{e}_3 + \\ &+ A_3 B_1 \vec{e}_3 \cdot \vec{e}_1 + A_3 B_2 \vec{e}_3 \cdot \vec{e}_2 + A_3 B_3 \vec{e}_3 \cdot \vec{e}_3. \end{aligned} \quad (5)$$

bu tenglikdan $\vec{A} \cdot \vec{B} = A_1 B_1 + A_2 B_2 + A_3 B_3$

Natijalar. 1. $\vec{A}(A_1, A_2, A_3)$ vektor uzunligi



$$|\vec{A}| = \sqrt{\vec{A} \cdot \vec{A}} = \sqrt{A_1^2 + A_2^2 + A_3^2} \quad (6)$$

2. Ikki \vec{A} , \vec{B} vektorlar orasidagi burchak (1) ga ko'ra

$$\cos(\vec{a} \wedge \vec{b}) = \frac{\vec{a} \cdot \vec{b}}{|\vec{a}| \cdot |\vec{b}|} \quad (7)$$

Agar \vec{A} va \vec{B} vektor koordinatalar bilan berilgan bo'lsa, bu vektorlar orasidagi burchak ushbu formula bilan aniqlanadi.

$$\cos(\vec{a} \wedge \vec{b}) = \frac{x_1 x_2 + y_1 y_2 + z_1 z_2}{\sqrt{x_1^2 + y_1^2 + z_1^2} \cdot \sqrt{x_2^2 + y_2^2 + z_2^2}} \quad (8)$$

Vektorlarning skalyar ko'paytmasi algebra va geometriyada muhim tushuncha bo'lib, u ikki vektor orasidagi burchak va ularning uzunliklari bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo'llaniladi. Bu ko'paytma ikki vektorning modullari va ular orasidagi burchakning kosinusi orqali aniqlanadi. Skalyar ko'paytma natijasi skalyar miqdor bo'lib, u vektorlar orasidagi yo'nalish va parallel yoki perpendikulyar ekanligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, u fizikada ish, kuch va proyeksiya kabi tushunchalarni hisoblashda qo'llaniladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mahmudov N. "Matematik analiz va geometriya asoslari" – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018.
2. Qosimov I., O'rozov M. "Geometriya: nazariya va amaliyot" – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashriyoti, 2020.
3. Xamidov U. "Matematik transformatsiyalar va ularning qo'llanilishi" – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016.
4. Rashidov A., Norqulov B. "Geometriyaning asosiy tushunchalari va metodlari" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Muminov S. "Geometriya va uning amaliy ahamiyati" – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021.
6. Jo'rayev N. "Simmetriya va transformatsiyalar nazariyasi" – Toshkent: Fan, 2017.

Research Science and
Innovation House





MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI VA UNDA FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Samatova Halima Nuraliyevna

Osiyo xalqaro Universiteti 1-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Muammoli ta'lim texnologiyasi – bu o'quvchilarning fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faollikni oshiradigan ta'lim metodidir. Mazkur maqolada muammoli ta'lim texnologiyasining mohiyati, uning o'qitishda qo'llanilishi, shuningdek, turli sohalarda (matematika, adabiyot, fan, tilshunoslik va boshqalar) bu texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda metodologik asoslar, sohalar bo'yicha o'qitish uslublari va muammoli ta'limni samarali qo'llashning asosiy tamoyillari ko'rib chiqilgan. Maqolada o'qituvchilar va talabalar uchun muammoli ta'lim texnologiyasidan qanday foydalansa bo'lishi, uning natijalari va imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim, ta'lim texnologiyasi, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, metodologiya, ta'limning samaradorligi.

FEATURES OF PROBLEMATIC EDUCATIONAL TECHNOLOGY AND ITS USE

Annotation: Problem-based learning technology is an educational method aimed at developing students' thinking and creativity skills, enhancing the activity between the teacher and the student. This article analyzes the essence of problem-based learning technology, its application in teaching, and the specific characteristics of this technology in various fields (mathematics, literature, science, linguistics, etc.). The research examines the methodological foundations, teaching methods in different fields, and the main principles for effective implementation of problem-based learning. The article discusses how teachers and students can benefit from problem-based learning technology, its outcomes, and opportunities.

Keywords: Problem-based learning, educational technology, students' thinking ability, methodology, educational effectiveness.





ТЕХНОЛОГИЯ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ И ОСОБЕННОСТИ ЕЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

Аннотация: Технология проблемного обучения — это метод обучения, направленный на развитие мыслительных и творческих способностей учеников, повышающий активность между преподавателем и учащимися. В данной статье анализируется сущность технологии проблемного обучения, её применение в преподавании, а также специфические особенности этой технологии в различных областях (математика, литература, науки, лингвистика и др.). Исследование рассматривает методологические основы, методы преподавания в разных областях и основные принципы эффективного применения технологии проблемного обучения. В статье обсуждается, как преподаватели и студенты могут использовать технологию проблемного обучения, её результаты и возможности.

Ключевые слова: Проблемное обучение, образовательная технология, мыслительные способности учеников, методология, эффективность образования.
Kirish. Muammoli ta'lim texnologiyasi so'nggi yillarda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu texnologiya talabalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning bilimga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Muammoli ta'limni qo'llashda o'qituvchilar nafaqat bilimlarni uzatish, balki o'quvchilarda muammolarni hal qilish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishni maqsad qiladilar. Boshqacha aytganda, muammoli ta'lim texnologiyasi o'qitishda faqatgina ma'lumotlarni o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarning problemaga yondoshuvini, tahlil qilish va yechim topish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Ushbu maqolada muammoli ta'lim texnologiyasining mohiyati, afzalliklari va uning turli sohalarda qo'llanishi tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Muammoli ta'lim texnologiyasining rivojlanishi va qo'llanishiga doir ko'plab ilmiy ishlar mavjud. V.I.Shatalov va A.A.Verbitskiy kabi olimlar o'z ishlarida ta'lim texnologiyalarining samaradorligini o'rganishgan. Shatalov Muammoli ta'limning o'quvchilarni rivojlantirishdagi o'rnini haqida alohida ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, muammoli ta'lim, o'quvchilarni passiv auditoriyadan faol subyektlarga aylantirish imkonini beradi. V.P.Bespalko esa muammoli ta'limni interaktiv metodlar bilan bog'lashga alohida e'tibor bergan. Shu bilan birga, so'nggi yillarda pedagogik texnologiyalar va metodlar sohasida amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar muammoli ta'lim texnologiyasining samaradorligini ko'rsatmoqda.





A.M.Novikov o'z tadqiqotlarida muammoli ta'lim texnologiyasining o'quv jarayonidagi metodik asoslarini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o'quvchiga savollarni taqdim etish, ularga javob berish va o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammolarni yechish vazifasi yuklatiladi.

Ushbu maqola muammoli ta'lim texnologiyasining samaradorligini baholash uchun turli metodologik yondashuvlarni qo'llaydi. Tadqiqotda asosan amalga oshirilgan tajribalar, so'rovnomalar, psixologik testlar va tahliliy usullar ishlatilgan. Shuningdek, turli sohalarda muammoli ta'lim texnologiyasining qo'llanilishining samaradorligini o'rganish uchun o'qituvchilar va talabalar bilan intervyular o'tkazildi. Metodologik jihatdan, tadqiqotda o'quvchilarni muammolarga qarshi yondashuvini o'rganish, o'qituvchilar tomonidan muammoli metodlarning qanday qo'llanilishini va bu jarayonlarning o'quvchilarning fikrlash qobiliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi muammoli vaziyatlar va mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirilganligi tufayli, o'quv materialining o'zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi. Mashg'ulotlar paytida gipoteza (faraz) qo'yiladi, uning asoslanganligi ko'rsatiladi va bu muammoning yechimi beriladi. Ko'pchilik hollarda bizning o'qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar (ular hatto yangi bo'lsa ham), ammo misol uchun AQShda o'qituvchi masalani o'rganish uslubini, o'zi qo'ygan muammoni yechish yo'llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko'rsatadi va tushuntiradi. Ya'ni u tadqiqotchi sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi navbatda, ayniqsa, ana shu narsa ta'lim oluvchini qiziqtirib qo'yadi, unda ijodiy fikrlash va faollikni tug'diradi.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga taalluqli, chunki bu yerda shaxsga subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi – pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir. Muammoli o'qitish, o'qitishning eng tabiiy samarali usulidir, chunki ilmiy bilimlar mantiqi o'zida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to'liq va aniq ta'rif M.I.Maxmutov tomonidan berilgan bo'lib, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari, tahlil, umumlashtirish hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va talabalarning





tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining tizimi sifatida izohlanadi. Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy- tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda obyektiv qonuniyatlari didaktik tamoyil – muammolilikka tayanadi.

Fanda muammoli o'qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi: «muammo» va «muammoli vaziyat» tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan obyektlar o'z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Demak, muammoli masalani muammoning oddiy, xususiy bir masaladan iborat holati sifatida ko'rish mumkin. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yichaichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar o'rtasidagi ziddiyatdir, bunda, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirishni harakatlantiruvchi kuchdir.

**Research Science and
Innovation House**





Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

muammo mazmuniga nisbatan yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;

muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);

muammo yechimida olinadigan axborotni o'quvchilar uchun muhimligi;

pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur;

Muammoli vaziyatlarning quyidagi turlari belgilangan:

✚ **Favqulotda vaziyat** (kutilmagan vaziyatda shoshilinch va tezkor xatti-harakatlar, muammo yechimi talab qilinadi).

✚ **Nizo vaziyati** (to'qnashuv, kelishmovchilik, fikrlar qarama-qarshiligi vaziyatida munosib xatti-harakatlar, muammo yechimi talab qilinadi).

✚ **Tanlash vaziyati** (muammoli vaziyatni hal qilishning muqobil variantlari ichidan eng maqbul asosli xatti-harakatlar tanlanib, muammoni yechish talab qilinadi).

✚ **Inkor vaziyati** (berilgan tasdiq ifodasidagi vaziyatda xatoliklar va inkor etiluvchi holatlar aniqlanadi, asoslanadi, isbotlanadi, muammo yechimi talab qilinadi).





✚ **Faraz vaziyati** (hali sodir bo'lmagan, lekin sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kutilmagan noodatiy vaziyat yoki holatlar doirasida xatti-harakatlar, muammo yechimi talab qilinadi).

✚ **Nomutanosiblik vaziyati** (nazariya va amaliyot, ilmiy va hayotiy bilimlar o'rtasidagi nomuvofiqlik vaziyatlarida muammo yechimi talab qilinadi).

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchiuning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni yoki yechimni berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqeya, vaqt va hodisalarni ongida kayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi. Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining samarasini o'rganish natijasida quyidagi asosiy xulosalarga keldik:

➤ Faollikni oshirish: Muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash o'quvchilarning faolligini oshiradi. O'quvchilar o'zi mustaqil tarzda muammolarni hal qilishga intiladi, bu esa ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

➤ Ijodkorlikni rivojlantirish: Muammolarga yondoshuvda ijodkorlikni rivojlantirishning yangi imkoniyatlari ochiladi. O'quvchilar an'anaviy bilimdan tashqari, turli nuqtai nazarlardan fikrlashga va yangi yechimlar topishga intiladilar.

➤ Kollektiv ishni rag'batlantirish: Muammoli ta'limda jamoa ishlari ko'p ahamiyatga ega. O'quvchilar muammolarni guruhda hal qilish orqali o'zaro hamkorlik qilishni, fikr almashishni va birgalikda yechim topishni o'rganadilar.

➤ Mavjud muammolarni aniqlash: O'quvchilar o'zlari bilan bog'liq muammolarni aniqlashda muvaffaqiyatga erishadilar. Buning natijasida o'quvchilar hayotdagi haqiqatga yanada yaqinroq bo'lgan muammolarni hal qilishga qodir bo'ladilar.





Xulosa: Muammoli ta'lim texnologiyasining o'qitishda qo'llanilishi o'quvchilarning ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu texnologiya o'quv jarayonini faollashtiradi va o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Shu bois, muammoli ta'limni o'qituvchilar tomonidan kengroq qo'llanilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shatalov, V.I. (1982). Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Moskva: Pedagogika.
2. Verbitskiy, A.A. (2000). Ta'lim texnologiyalarining pedagogik asoslari. – Moskva: Pedagogika.
3. Bospalko, V.P. (1993). Ta'lim texnologiyalari: yangi ko'rinishlar va yondoshuvlar. – Moskva: Rossiyadagi universitetlar nashriyoti.
4. Novikov, A.M. (2010). Muammoli ta'limning metodik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchi nashriyoti.
5. Numondjonovna, D. G. (2021). The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children. Middle European Scientific Bulletin, 11.
6. Numondjonovna, D. G. (2022). The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(2), 54-57.
7. Numondjonovna, D. G. (2021). The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(7), 28-31.
8. Davranova Gulbahor, N. (2022). Advantages of using modern information technologies in teaching russian language for primary school students. American journal of social and humanitarian research, 3(1), 333-338.
9. Davranova, G. N. (2022). Use of Information Technologies in Primary School Russian Lessons. European journal of innovation in nonformal education, 2(6), 73-78.
10. Numondjonovna, D. G. (2022). Maktabgacha va boshlang 'ich ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 144-146.
11. Davranova, G. N. (2023, January). THE DEVELOPMENT OF PUPILS'SPEECH IN RUSSIAN LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL. In





INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 1, pp. 147-154).

12. Numondjonovna, D. G. (2022). Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 363-367.

13. Numondjonovna, D. G. (2024). SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDAGI TA'LIMNING AHAMIYATI. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(1), 197-202.

14. Numondjonovna, D. G. (2024). FORM, METHOD, TOOLS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. Miasto Przyszłości, 47, 495-499.



**Research Science and
Innovation House**



**JADIDCHILIK HARAKATINING ULUG‘ NAMOYANDASI
MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING HAYOT YO‘LI VA UNING MILLAT
TARAQQIYOTI YO‘LIDAGI XIZMATLARI**

Ermatova Zulfiya, O‘zbekiston

xalqaro islom akademiyasi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘zbek jadidchilik harakatidagi o‘rni, uning ma‘rifatparvarlik faoliyati va milliy uyg‘onishdagi xizmatlari yoritiladi. Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi sa‘y-harakatlari, matbuot va dramaturgiya orqali xalq ongini uyg‘otishdagi hissasini tahlil qilinadi, shuningdek, Behbudiyning ko‘p tilli ta‘limga bergan e‘tibori va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Maqola Behbudiyning milliy o‘zlik, ma‘rifat va taraqqiyot yo‘lidagi fidokorona xizmatlari bugungi avlod uchun ham o‘rnak bo‘lib qolayotganini ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik harakati, ma‘rifatparvarlik, yangi usul maktablari, “Oyna” jurnali, milliy uyg‘onish, ta‘lim islohoti, dramaturgiya, ko‘p tilli ta‘lim, milliy o‘zlik.

Mahmudxo‘ja Behbudi – o‘zbek jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo‘lib, yozuvchi, jurnalist va noshir sifatida faoliyat yuritgan. U o‘z hayoti davomida xalqimizning kelajagi uchun tinmay kurashdi, Markaziy Osiyo xalqlari orasida ilm-ma‘rifat va yangi fikrlarning yoyilishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Uning asarlari va faoliyati millatimiz tarixida chuqur iz qoldirdi. Behbudi nafaqat ma‘rifatparvar, balki milliy uyg‘onishning ramziga aylangan shaxsdir.

Mahmudxo‘ja Behbudi 1875-yilda tarixiy va madaniy markazlardan biri bo‘lgan Samarqand shahrida tug‘ilgan. Uning otasi qozilik lavozimida ishlagan bo‘lib, o‘g‘lining diniy va dunyoviy bilim olishini qo‘llab-quvvatlagan. Behbudi dastlab eski maktab va madrasalarda ta‘lim oldi, lekin u o‘sha davr ta‘limining zamondan orqada qolganini erta his etdi. Bu esa unda yangi bilimlarni izlash istagini uyg‘otdi. Safarlari davomida u Rossiya, Turkiya va Misr kabi davlatlarda ilg‘or ta‘lim tizimlari bilan tanishdi. Bu sayohatlar Behbudiyning dunyoqarashini kengaytirib, uning qalbida xalqini jaholat botqog‘idan olib chiqish istagini kuchaytirdi. Ayniqsa, Turkiya,





Tatariston va Boshqirdistondagi usuli jadid maktablari unga katta ilhom berdi. Behbudiy xalqni o‘zgarish sari boshlash uchun, avvalo, ta’lim tizimini isloh qilish kerakligini tushundi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida paydo bo‘lgan jadidchilik harakati xalqni ilm-ma’rifat bilan uyg‘otish maqsadini ko‘zlagan edi. Bu harakatning asosiy vakillaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy butun umrini xalq taraqqiyotiga bag‘ishladi. U jadidchilik g‘oyalarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham hayotga tatbiq qildi. Behbudiy eski maktablarning eskirgan, faqatgina yodlashga asoslangan ta’lim usulini tanqid qilib, yangi ta’lim tizimiga asoslangan (usuli jadid) maktablarni ochish tarafdori bo‘ldi. U ochgan yangi usul maktablarida matematika, geografiya, tarix, tibbiyot va boshqa dunyoviy fanlar ham o‘qitila boshlandi. Bu o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirdi va ularni zamonaviy jamiyatga tayyorladi. Bu islohotni o‘tkazishdan maqsad juda katta bo‘lib, oddiygina maktab ochish orqali xalqning ongini o‘zgartirish mumkinligini jadidlar tushungan edi. Behbudiy uchun maktab – millatning kelajagini shakllantiradigan maskan bo‘lib, u xalqimizni savodsizlik va jaholatdan xalos qilishning yagona yo‘li – ta’lim berish ekanini chuqur anglardi.

Bundan tashqari, Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuotning xalq ongini uyg‘otishdagi kuchini yaxshi tushungan va bu sohada ham katta ishlarni amalga oshirgan. U 1913-yilda “Oyna” jurnalini nashr eta boshladi. Bu jurnal qisqa muddat ichida Turkiston jadidlarining asosiy minbariga aylandi, unda millatning dardi, jamiyatdagi muammolar, ayollar ta’limi, iqtisodiy islohotlar va siyosiy masalalar haqida maqolalar chop etildi. “Oyna” faqat jurnalgina emas, balki xalq uchun haqiqiy oyna bo‘lib, haqiqatlarni ko‘rsatuvchi vosita kabi edi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, bu jurnal Turkiston o‘lkasidan boshqa hududlarda ham mashhur bo‘lgan. Behbudiyning shogirdi bo‘lgan boshqa bir ma’rifatparvar Hoji Muin shunday deydi: “Oyina” xalqni uyg‘otish uchun yaxshig‘ina xidmat etdi... “Oyina” Turkistondan boshqa Totoriston, Kofkoz, Afg‘oniston, Eron, Turkiya va Misrgacha tarqalar va har yerda suyib o‘qilur edi”. Behbudiy matbuot orqali xalqni milliy o‘zlikka, tafakkurga va taraqqiyotga undadi. U gazeta sahifalarida xalqning kelajagi faqat ta’lim bilan bog‘liq ekanini ochiq yozdi, bu xabarni butun xalqqa yetkazishga harakat qildi. Behbudiy, jumladan, ayollarni savodli qilish millatning ravnaqi uchun zarur ekanini ko‘p bor ta’kidlagan. Shuningdek, u millatparvarlik, birdamlik va ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini doimo ilgari surdi.





Behbudiy o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga ham ulkan hissa qo‘shdi. Uning eng mashhur asari – “Padarkush” dramasi bo‘lib, ushbu asar o‘sha davrdagi ijtimoiy muammolar, bilimsizlik, diniy mutaassiblik va jaholatning fojiali oqibatlarini ochib beradi. Bu asar orqali Behbudiy xalqni jaholatning ayanchli oqibatlari haqida o‘ylashga undadi. Ma’rifatparvar ijodkor ushbu asarda tuban jaholat tufayli ota va o‘g‘il o‘rtasida sodir bo‘lgan fojiali hodisa orqali millatga chuqur ma’rifat suv va havodek zarur ekanligini ko‘rsatib berdi. Ushbu sahna asari namoyish etilganida barcha tomoshabinlar orasida juda mashhur bo‘lib ketdi, bu asar xalqni tafakkur qilishga undadi. Shuni aytib o‘tish kerakki, “Padarkush” faqatgina badiiy asar emas, balki o‘sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy, balki siyosiy muhitini ochiq-oydin tasvirlab beruvchi, bu borada xalqni uyg‘otuvchi, uni ma’rifatga chorlovchi xabar edi.

Shuningdek, Behbudiy o‘zining turli mavzulardagi maqolalari orqali jamiyat hayotidagi eng dolzarb masalalarni qalam ostiga olgan. Xususan, u o‘z maqolalaridan birida “Biz turkistoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur” deb yozadi. Behbudiyning fikricha, turkiy til xalqning kundalik muloqot tili bo‘lsa, forsiy til madrasalar va adabiyot tili, arabiy til diniy bilimlar uchun, rus tili esa zamonaviy fan va texnologiyalarni o‘rganish uchun muhimdir. Bu fikr millatning har tomonlama rivojlanishi uchun ko‘p tillarni bilish naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Behbudiyning bu qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolgan bo‘lib, globallashtirilgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun ko‘p tillarni bilishimiz zarurligini ta’kidlaydi.

Buyuk ma’rifatparvar jadid bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy ona Vatanga, o‘z xalqiga xizmat qilish yo‘lida hech narsadan qaytmadi. Uning millatning tafakkurini, milliy ongini uyg‘otish yo‘lidagi harakatlari sho‘ro hokimiyatini tashvishga soldi. Mustamlakachilar buyuk bobomizga har tomonlama zarar yetkazib, uning yo‘liga to‘sqinlik qilmoqchi bo‘ldilar. Nihoyat, 1919-yilda Qo‘qon shahrida ma’rifatparvar bobomiz qizil armiyachilar tomonidan qatl etildi. Bu qotillik millat uchun og‘ir yo‘qotish bo‘ldi, o‘z xalqi uchun, uni ilmga, ziyoga olib chiqish uchun hamma narsaga tayyor bo‘lgan buyuk inson bu olamdan ketdi. Ilm-ma’rifat dushmanlari zohiran o‘z maqsadlariga yetdilar, biroq Behbudiyning orzusi – millatni savodli, ma’rifatli va mustaqil qilish istagi – o‘chmadi. Uning fidoyiligi va g‘oyalari o‘zidan keyingi avlodlarga kuch va ilhom manbai bo‘lib qoldi.





Bugungi kunda Mahmudxo‘ja Behbudiy bobomiz nomi xalqimiz qalbida barhayotdir. O‘zbekistonning ko‘plab maktablari, ko‘chalari va madaniyat markazlari uning nomini olgan. Uning asarlari maktab va universitetlarda o‘rganiladi, bobomiz nomida tashkil etilgan maxsus nomli stipendiya g‘oliblari har yili taqdirlanadi. Shuningdek, har yili Behbudiyning tavallud kuni munosabati bilan turli ilmiy anjumanlar o‘tkazilib, uning boy merosi keng targ‘ib qilinadi. Buyuk ziyoli, millatparvar bobomiz yaratgan ma‘rifatparvarlik ruhi bugun ham yosh avlod qalbida yashamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. “Oyna” gazetasidagi maqolalar to‘plami. – Samarqand, 1913.
2. Abdurauf Fitrat. Munozara. – Istanbul, 1911.
3. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005.
4. Yoshlar ishlari agentligi. – Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
5. Hoji Muin. Samarqand matbuotining tarixi. “Zarafshon” gazetasi, 1923.

**Research Science and
Innovation House**





**VOYAGA YETMAGANLARDA IJTIMOYIY NORMADAN OG‘ISH
MUAMMOSINING PSIXOLOGIK JIHATLARI.**

Ergashev Jo‘rabek Xalilovich

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura bosqichi talabasi

E- mail: Uzbekistan.andijon1998@gmail.com

Tel : +998909192115

Annotatsiya: Ijtimoiy normalar jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi ekanligi, ijtimoiy normalar shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtiruvchi qoidalar majmui ekanligi, deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan turli jihatlarga ega ekanligi, xulqiy-og'ishlarning salbiy oqibatlari va ijtimoiy norma belgilari ko'rsatib berishga harakat qilingan

Kalit so'zlar: deviantlik, ijtimoiy norma, psixologik omillar, agressiya, shaxs, xarakter, ustanovka.

Аннотация: Показано, что социальные нормы являются неотъемлемой частью управления обществом, представляют собой совокупность правил, гармонизирующих поведение личности или социальной группы с определенной социальной средой. Рассмотрены виды девиантного поведения, такие как алкоголизм, наркомания, суицид, каждый из которых имеет различные аспекты с точки зрения возникновения и социальных последствий. Продемонстрированы негативные последствия поведенческих отклонений и признаки социальной нормы.

Ключевые слова: девиантность, социальная норма, психологические факторы, агрессия, личность, характер, установка.

Abstract: This paper attempts to demonstrate that social norms are an integral part of society's governance, and that they constitute a set of rules harmonizing the behavior of individuals or social groups with a specific social environment. It explores how various social vices related to alcoholism, drug addiction, and suicide, which are types of deviant behavior, have fundamentally different aspects in terms of their occurrence





and social consequences. The study also aims to highlight the negative consequences of behavioral deviations and identify the indicators of social norms.

Keywords: deviance, social norm, psychological factors, aggression, personality, character, attitude.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida doimo huquqiy muammo bo'lib kelgan huquqbuzarliklar nafaqat ijtimoiy muammo, balki psixologik muammo hamdir. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarga oid qonunlar uzoq vaqtdan beri shakllangan bo'lsa-da, ular ham vaqti-vaqti bilan o'zgartirilib boriladi. Hozirgi kunda dunyoning barcha ilg'or va sivilizatsiyalashgan davlatlarida voyaga yetmaganlar jinoyati to'g'risidagi qonunlar o'zgartirildi. Bundan tashqari, bugungi kunda huquqbuzarlik jinoyatdan ko'ra noto'g'ri xatti-harakatlar, ijtimoiy noqulaylik sifatida qaralmoqda. Jamiyat hayotida yoshlar tomonidan sodir etiladigan barcha xatti-harakatlar jamiyat a'zolari tomonidan ikki xil, ya'ni ijobiy va salbiy baholanishi mumkin. Bugungi kunda yoshlar jamiyatning asosi va uning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan kuchdir. Yoshlarning ma'naviy va jismonan barkamol yetukligi davlat qudratining belgisidir. Ammo bugungi globallashuv davrida jamiyat hayotida ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash juda murakkabdir. Buning sababi ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy kuchlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Globallashuvning salbiy tomonlari, axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi jamiyat madaniyati, ma'naviyati, axloq me'yorlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyat hayotida vujudga kelayotgan salbiy g'oyalar yoshlar ongida yoyilmoqda va o'z ta'sirini ko'rsatmoqda va natijada yoshlar ongida salbiy o'zgarishlar va xatti-harakatida og'ishlarni vujudga keltirmoqda. Eng katta qamrovga ega bo'lgan deviant xulq-atvor shular jumlasidandir. Deviant xatti-harakatlarning shakllanishiga oila, oilaviy munosabatlar, o'smir shaxsining xarakter xususiyatlari, ruhiy va jismoniy kasalliklarga moyilligi, shuningdek, ijtimoiy muhit ta'sir qiladi[1]. Shaxsni rivojlantirish jarayonida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy xatti-harakatlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirga egadir, shuning uchun to'laqonli ta'lim va korreksion (tuzatish) ishlari bo'lmagan taqdirda, yoshlarda xarakterning qiyinlashuvi kuchayadi, bu esa shaxs rivojlanishida sotsiallikning yangi belgilarining paydo bo'lishi yoki mavjudlariga e'tiborsizlik darajasini oshiradi[2].

Og'ishgan xulqli yoshlarda o'z xulqini buzishga moyillik ortgani sari xissiy holatlarni nazorat qila olish xususiyatlari kamayib boradi. Bunday toifadagi yoshlarda





o'ziga zarar yetkazish hissi ustunlik qilib, natijada o'z hissiyotlarini boshqara olmaslik, tashqi taassurotlarni qabul qilmaslik holatlari ham kuzatiladi. Bunday holatlarni oldini olish, maxsus psixokorreksion mashg'ulotlar olib borish shaxs ichki olamini va uning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib yondashishni talab etadi. Olingan natijalar asosida shuni aytishimiz mumkinki, o'ziga zarar yetkazish turlaridan biri bo'lgan suitsidual holatlarning kelib chiqishiga aynan shaxsning o'zini emotsional iroda qila olmasligi sabab bo'ladi, deyish mumkin. Natijada esa, shaxsda psixik buzilish holatlari kelib chiqishi bilan birgalikda, o'ziga va atrofdagilarga jiddiy ma'naviy, moddiy va psixologik zarar yetkazish holatlari sodir bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jinoyat va xulq og'ishishining psixologik nazariyalari ham, biologik nazariyalar kabi jinoiy mayllarning shaxsning muayyan tipi bilan bog'lar edi. Buni psixologik nuqtai nazardan talqin qilishga Freyd g'oyalari, garchi freydning o'zi kriminalogiya bo'yicha ko'p narsa yozmagan bo'lsa ham, muayyan ta'sir o'tkazdi. Keyingi mualliflar unchalik ko'p bo'lmagan odamlarga axloqsiz yoki psixopatik shaxs (bunday individlarda boshqa, me'yordagi odamlar uchun hos bo'lgan ahloqiylik va boshqalar uchun g'amxo'rlik qilish tuyg'usi bo'lmaydi) rivojlanadi, degan fikr bilan uning g'oyalari asoslanishadi[3]. Freyd fikriga ko'ra rivojlanishning E tip bosqichida ilk bolalikda o'rganiladigan o'zini cheklashlardan ko'pchilik ahloqiy sifatlar vujudga keladi.

Og'ishlarni faqat negetativ asosda olib qarash noto'g'ri bo'lar edi. Odamlarning turli qadriyatlari va ma'nfaatlarini hisobga oladigan har qanday jamiyat hatti-harakatlari ko'pchilik amal qiladigan me'yorlarga mos kelmaydigan ozchilik uchun ham o'rin topishi kerak. Siyosat, fan, san'at yoki inson faoliyatining boshqa sohalarida yangi g'oyalarni rivojlantirayotgan odamlar ortodoksal tamoyillarga amal qilinadigan odamlar tomonidan dushmanlik bilan qabul qilinadilar. Jamiyat nokonformistik xulqqa ega bo'lgan odamlarga keng erkinlik uchun imkoniyatlar yaratib berar ekan, hafli og'ishlar shuning uchun to'lanadigan xaq bo'lishi kerakmi. Masalan jinoyatchilikning yuqori darajaga chiqishi jamiyatning o'z fuqorolariga yaratgan individual erkinliklar evaziga to'laydigan bahosimi. Ba'zilar hulq-atvorning qat'iy qoidalari bo'lmagan jamiyatda zo'rlik bo'lishi muqarrar, deyuvchi odamlar shu taxlit fikr yuritishadi. Biroq bu fikr sinchiklab o'rganilsa, uning mantiqan izchil emasligiga ishonch hosil qilish mumkin. Ba'zi jamiyatlarda individual erkinliklarning keng majmuasi mavjud, og'ayotgan xulqqa esa bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishadi va ayni paytda bu yerlarda jinoyatchilik darajasi past bo'ladi. Deviant xulqqa bag'rikenglik bilan



munosabatda bo'layotgan jamiyat dezintegrasiyaga duchor bo'lishi shart emas. Biroq uni cheklab o'tish faqatgina erkin individual erkinliklar ijtimoiy adolat, ijtimoiy tartib bilan qo'shib aholi to'laqonli hayot kechirish imkonioyatiga ega tengsizliklar unchalik katta bo'lmaganda erishish mumkin. Agar erkinlik tenglik bilan muvozanatga keltirilmasa, ko'pchilik o'zini nomoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa og'ayotgan hulq ijtimoiy destruktiv shakllariga ega bo'ladi.

L.S.Vigotskiy fikricha, qiyin o'smir xayoti munosabatlar xarakterining yig'indisidir. Bular avvalo qaysar, injiq, bolalar ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning malum bir qismi intizomsiz, qo'pol bo'ladilar. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o'zgartirish ularga bazi xuquqlarni berish bilan ularga tasir o'tkazish mumkin[4]. Psixologiyada xulqi og'ishgan o'quvchilarning bir qancha klassifikatsiasi mavjud.

Deviant xulq-atvor 2 xil darajada o'rganiladi. Individual va ommaviy. Individual darajada ma'lum bir kishining aniq bir ish qilishi ommaviy darajada shu turdagi xodisalar majmui, ijtimoiy me'yorlarning buzulishlari, tizimi xaqida so'z boradi. Xar bir ijtimoiy me'yor va undan chekinish ijtimoiy guruxlar tomonidan xar xil baxolansada, ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan ijtimoiy me'yorlarning baxolar yo'nalishi bir xil ko'rsatkichga ega[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi obyektiv ochib berildi. Deviantni guruh yoki jamiyatda ko'pchilik odamlar tomonidan qabul qilinganme'yorvame'yorlar yig'indisiga mos kelmaslik deb aytish mumkin. Shuni ta'kidlash zarurki, "Og'ishgan xulq" atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa 9 yoshdan keyin qo'llashimiz mumkin. 5yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqi yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni yetilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Destruktiv xulq bolalikedagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin. Z.Freyd inson xulqida 2 ta asosiy instinkt borligini ta'kidlaydi: Eros-buhayot



isntinktidir. Undagi quvvat, hayotni saqlash, qayta tiklashga yo‘naltiradi. Tanatos–o‘lim instiktidir. Undagi quvvat hayotni vayron qilish va to‘xtatishga yo‘naltiradi. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o‘rnini va xulqini belgilaydi. Destruktiv xulq ko‘rinishlarini namoyon bo‘lishida negativ ustanovkalar shaxsning atrofdigilarning aksariga nisbatan salbiy munosabatlari natijasida shakllanadi. Biz shaxs og‘ishgan xulqining turli ko‘rinishlari ikkita o‘ziga yoki boshqalarga qarama-qarshi yo‘nalishli “destruktiv axloq”ning yagona o‘qida joylashganini ko‘ramiz. Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog‘lomoila muhitining o‘rni kattadir. Bola tug‘ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Ijtimoiy me‘yorlar, odatda eng ko‘p tarqalgan ijtimoiy xolatlarga asoslanadi. Bu xolatda me‘yor xech qanday qarshiliksiz amalda bo‘ladi va ko‘pincha anglanmaydi xam. Biroq kam uchraydigan xolatning paydo bo‘lishi bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan: Kattalarga xurmat tushunchasi boshqa me‘yor yoki ushbu xolatda xarakatlanyotgan subyektning aniq manfatlari bilan ziddiyatga kelamasa xech qanday qiyinchilik tug‘ulmaydi. Bunda ma‘lum bo‘ladiki xayot sharoitlari bazi xollarda subyekt oldiga quyadigan ma‘naviy va ruxiy muammo xar qanday xolatda xam o‘z individual qiziqishlari manfatlari va intilishlariga qarshi chiqib me‘yorga bo‘ysunish lozimmi yoki teskarisini bajarish kerakmi degan savolga javob topishdan iboratdir. Psixologik tadqiqodlarga asoslanib ma‘naviy rivojlanish bosqichlari asosida deviant xulq-atvorning o‘z-o‘zini himoya qilish usullarini ko‘rib chiqish mumkin. Birinchi bosqich ma‘naviyatga bo‘lgan ong, ikkita pog‘onadan iborat. Birinchi quyi pog‘ona, xaqiqiy ma‘naviy qarashlar yo‘q. rasmiy taqiqlarga aks holda jazolashlari tufayligina amal qilinadi. Ikkinchi pog‘onada ijtimoiy meyorlarga bo‘ysinishdan foyda olishga intilish qo‘yiladi. Shu tariqa ma‘naviyatgacha bo‘lgan ong darajasiga subyektning ijtimoiy qarashi asosida shahsiy foyda va manfaatlari yotadi. Ma‘naviy burch va shahsiy masuliyat hissi xaqidagi tasavvur mavjud bo‘lmaydi. O‘smir yoshidagi o‘quvchilarning xulq atvor reaksiyasi bilan shug‘ullangan olimlar Michean.L(1964), Kovalov(1969-1979), A.Ye.Lichko(1983) o‘smirlik davriga xos bo‘lgan umimiy sifatlar psixologik xususiyatlar, xulq-atvor modellari, yani o‘quvchi xulq atvorining, ijtimoiy muxitning, ayniqsa yaqinlarining o‘zaro ta‘siriga nisbatan xulk-atvor reaksiyasi xam muxim axamiyat kasb etishini ta‘kidlaydilar. O‘smirlik xulq atvorining o‘ziga xos reaksiyalariga quyidagilar talluqlidir[6].





Tahlil. xulqi og'ishgan yoshlarning ko'pchiligida xulq buzilishlarini kelib chiqishiga, ijtimoiy me'yorlarni buzishida o'z ehtiyojlarning ma'lum miqdorda qondirilmaganligini, shuningdek, qondirilmagan ehtiyojlarini boshqa vositalardan foydalangan holda qondirishga urinishlari ham sabab bo'ladi, degan xulosa keladi. Xulq buzilishini oldini olishda shaxsdagi psixologik faktorlarni ham inobatga olish, korreksiya ishlarni takomillashtirish zarur, degan tavsiyalarni ishlab chiqish o'rinlidir. Yoshlarda xulq og'ishini oldini oluvchi ijtimoiy va psixologik omillarni o'rganar ekanmiz, hozirgi kun uchun muhim hisoblangan ilmiy gipotezalarni, bu sohaga doir nazariy ma'lumotlarni amaliy faoliyatda qo'llash mavzumizni yortishdagi ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Yoshlar o'rtasida xulq og'ishini barvaqt oldini olish to'g'risida nafaqat profilaktika idoralari, Ichki ishlar va Sog'liqni saqlash, ta'lim, sport va turizm, madaniyat vazirliklari tomonidan rioya qilingan ijtimoiy nazorat va cheklovlar pozitsiyasidan kelib chiqib qarash noo'rin [7].

Voyaga yetmaganlar o'quvchilar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tabiatini tushunish uchun avvalo, ularning boshlanish davrini, obyektini hamda xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsiga ta'sir ko'rsatish xususiyatini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning motivasion soxasiga aloqador bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Chunki shaxsning motivasion, ya'ni yo'naltiruvchi omilini bartaraf etish orqali o'smirning ijtimoiy borliqqa nisbatan munosabatini ijobiy yo'naltirish va shu orqali xulq og'ishining oldini olishga erishish oson kechadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, xulqi og'ishgan o'quvchilarda uchraydigan agressiv xatti-xarakterlar asosini avallo oila muxiti tashkil qilishi va oiladaga o'zaro bir birini psixologik tomondan tushinmasligi natijasidir. O'smirlik keskin o'zgarishlar davriligini xisobga olgan xolda, ularga alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Aks xolda esa, yuqoridagi salbiy xususiyatlar o'smir yoshidagi o'quvchi karakterini, uning xatti-xarakterini tubdan o'zgartirib yuboradi. Voytaga yetmagan o'quvchilarda jinoyatchilik umumiy yo'nalishi tahlili jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni nafaqat jinoyatchilik xulqi va salbiy illatlarga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib borish, balki ularni sog'lom xulqli bolalar hamda o'smirlar o'rtasida olib borish, zaruriyatini ko'rsatadi. Bu xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smir o'quvchilar xulqini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilishga, taqqoslashga imkoniyat beradi. Shuningdek, bunday yondashuv





nafaqat xulq og‘ishiga ega bo‘lgan, balki sog‘lom xulqli bolalar va o‘smirlar o‘rtasida ham xulq og‘ishining kelib chiqish ehtimolligining oldini olishga yordam beradi.

Voyaga yetmagan o‘quvchilar o‘rtasida xulq og‘ishini oldini olish tadbirlari samaradorligi va ularning tasirchanligi, eng avvalo o‘smir yoshidagi o‘quvchilardagi ijobiy fazilatlar, ijobiy foydali extiyoj va qiziqishlarning shakillanganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu manodagi o‘quv tarbiyaviy tadbirlar va mashg‘ulotlar o‘quvchi xulqi og‘ishining oldini olishning dastlabki profilaktikasi sifatida xizmat qilishi kerak.

ADABIYOTLAR:

1. Ruxieva X.A. Voyaga yetmaganlarda huquqbuzarlik va suitsidal holatlarni kelib chiqish sabablari va ularni psixoprofilaktikasi. 2021. Tafakkur tomchilari. 360-bet.
2. Deviantnoe povedenie u podrostkov: Diagnostika. Profilaktika. Korrektsiya: Uchebnoe posobie / V.G.Kondrashenko, S.L.Igumnov. – M.: “Aversev”, 2004.
3. Cowen P. An HYY Man // British Journal of Psechiatty, 135. 1979.
4. B.M.Umarov.: psixologiya. toshkent 2012, 61-bet.
5. B.Sodiqov. —Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasi|| Termiz.; 2003 yil.
6. G.Q.Tolaganova, —Tarbiyasi qiyin o‘smirlar|| Toshkeny; 2005. 65- bet.
7. Gilinskiy Ya.I. Sotsial’nyy kontrol’ nad deviantnost’yu v sovremennoy Rossii: teoriya, istoriya, perspektivy // Sotsial’nyy kontrol’ nad deviantnost’yu. SPb., 1998.-S.4-21.
8. Wikipedia.com
9. Natlib.uz
10. Ziyonet.uz

Research Science and
Innovation House





**BO‘LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH
TAYYORGARLIK O‘QITUVCHILARINING IJODKORLIK
QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA O‘QUV LOYIHASI
USULINING XUSUSIYATLARI**

**Obidov Sherzod Shovkat o‘g‘li
Alfraganus Universiteti
Pedagogika fakulteti
Pedagogika va Psixologiya yo‘nalishi 2 bosqich magistranti**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda o‘quv loyihasi usulining ahamiyati va xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqola davomida o‘quv loyihasi usulining ta‘lim jarayonidagi o‘rni, bu metodning samaradorligi, o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli hamda ta‘lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari muhokama qilinadi. O‘quv loyihasi usulining o‘qituvchilarga yaratish va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishdagi o‘rni ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilari, ijodkorlik, o‘quv loyihasi usuli, boshlang‘ich ta‘lim, ta‘lim metodlari, yaratish, o‘quv jarayoni

Kirish

Ta‘lim tizimida pedagogik metodlarning samaradorligi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham alohida e‘tibor berishlari kerak. Bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilari uchun ijodkorlik va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki umumta‘lim tizimining sifatini ham yaxshilaydi. O‘quv loyihasi usuli bu borada eng samarali metodlardan biridir. Ushbu maqolada o‘quv loyihasi usulining bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishdagi xususiyatlari tahlil qilinadi.





Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili

O'quv loyihasi usuli haqida bir qancha ilmiy tadqiqotlar mavjud. O'quv loyihasi usulini pedagogik jarayonda qo'llash haqidagi tadqiqotlarda uning o'quvchilarga ijodiy yondashuvni rivojlantirishdagi muhim roli ta'kidlanadi. Shuningdek, bu metodning boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishda ham samarali ekanligi ko'rsatilgan. D. G. Elkonin va V. V. Davydovning kognitiv rivojlanish nazariyasida o'quv loyihasi usuli o'quvchi mustaqilligini va ijodkorligini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'rsatilgan. A. A. Verbitskiy va V. S. Lazarevning metodik tadqiqotlari esa, bu metodning o'qituvchilarni ijodiy ish jarayoniga jalb qilishdagi samaradorligini namoyish etadi.

Muhokama

O'quv loyihasi usuli ta'limda yangi o'quv yondashuvlarini joriy etishda muhim o'rin tutadi. Bu metod o'quvchilarga ma'lum bir muammoni hal qilish jarayonida o'z fikrlarini ifodalash, muammolarni hal qilishning turli yo'llarini izlash va ijodiy echimlar topish imkoniyatini beradi. Bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilari uchun bu usul pedagogik amaliyotda ijodiy yondashuvni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. O'quv loyihasi usuli orqali o'qituvchilar o'zlarining metodik ko'nikmalarini shakllantirish va ta'lim jarayonida yangi g'oyalarni amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Loyihalar orqali bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilari o'zlarini ta'lim jarayonining faollari sifatida ko'rsatishlari mumkin. Ular o'quvchilarga mustaqil va ijodiy fikrlashni o'rgatishda faol ishtirok etadilar. O'quv loyihasi usuli yordamida o'qituvchilar pedagogik faoliyatda yangi yondashuvlarni amalga oshirishda qatnashadilar, bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar

Maqolada tahlil qilingan o'quv loyihasi usuli bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda samarali metod ekanligini ko'rsatdi. Ushbu metod o'qituvchilarning yaratish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.



O'quv loyihasi usulini qo'llash orqali o'qituvchilar pedagogik amaliyotda yangi va samarali yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa

Shunday qilib, bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda o'quv loyihasi usuli ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va sifatini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu metod, o'qituvchilarni ijodiy va mustaqil ishlashga, yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga yo'naltiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Elkonin, D. G., & Davydov, V. V. (2004). Kognitiv rivojlanish va ta'lim metodikasi. Moskva: Pedagogika.
- 2.Verbitskiy, A. A., & Lazarev, V. S. (2010). Pedagogik faoliyat va metodik yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi.
- 3.Shukurov, R. F. (2018). O'quv loyihasi usuli va uning ta'limdagi o'rni. Tashkent: Fan va texnologiya.
- 4.Abdullayev, F. I. (2022). Boshlang'ich ta'limda o'quv loyihalarining samaradorligi. Toshkent: O'qituvchi.

**Research Science and
Innovation House**





THE IMPORTANCE OF VOCABULARY WORK FOR LEARNING THE RUSSIAN LANGUAGE

Khikmatova Dilrabo Pulatovna

BukhGU, Faculty of Philology,
Department of Russian Linguistics

Abstract. The article examines the role of the dictionary in expanding the vocabulary of students in the process of learning Russian, studying various vocabulary words, their role in speech, as well as the ability to use them correctly in speech, tasks and optimal types of exercises that help to use them correctly. In addition to using traditional types of vocabulary work, ideas are also expressed about innovative ways to increase vocabulary, develop speech and broaden students' worldview.

Key words: “Wheel of Fortune”, “Fourth wheel”, dictionary, pronunciation, vocabulary, innovative methods, speech content, translation, phraseology, orthoepic dictation

In our era, when science and technology are developing, economic and scientific ties with foreign countries are being established, the study of language and attention to it are increasing year by year. The dictionary plays a very important role in the study of any language. Therefore, the study and teaching of language imposes great responsibility on our philologists and linguists. Therefore, a linguistics teacher should put the issue of improving and enriching the students' vocabulary first. Because vocabulary work is not an additional part of the lesson, but the basis for learning a language. In vocabulary work, the student must see, read, hear and understand a new word.

Learning a language is a very complex process that requires a lot of knowledge, time, patience and diligence from both the student and the teacher.

Because the process of learning a language is carried out through listening, reading, speaking and writing. There are different ways to learn new words, but there are also important requirements for the process of learning a new word. Learning new





words should not be a boring learning task for the student, but should be fun and interesting.

When learning new words, attention is mainly concentrated on the following:

1. The orthoepic aspect (the word printed on the board must be pronounced);
2. The lexical aspect (defining the meaning of the word);
3. By the orthographic aspect (correct spelling of the word);
4. Entering into context with other words (composition of words and sentences).

When teaching Russian in foreign language groups, it is necessary to proceed from the educational focus of the group. There are words that are spelled the same but have different meanings. The following vocabulary words are included:

The meaning of some words depends on their spelling (orthography), for example: to wave (flag) - to develop (ability); to caress (dog) - to rinse (linen); sons (of mothers) - sons (of the Motherland); teeth (in humans, in animals) - teeth (on an instrument, on a machine) and others. When studying dictionaries, students are explained that incorrect spelling of words can lead to a change in their meaning.

When students fully understand and comprehend the meaning of a word, the positive impression increases their interest in it, and it is firmly retained in memory. Therefore, it is necessary not only to reveal the dictionary meaning of the word, but also to fill it with life content. Problems arise when translating ambiguous words found in the text.

A student who is not familiar with all the meanings of such words will probably have difficulty translating. One word can have several meanings. Depending on the meaning of the sentence, you can make the correct translation, being able to discern the meaning from which it comes.

For example: the meaning of the word "Time", since this word has several meanings, it can have different meanings in sentences.:

1. Meeting time - means the time of the meeting;
2. What time is it - means what time is it now.
3. Season - means what time of year is it now





In the sentence “This dress will suit a tall and slender girl”, here the word “will suit” means that the dress suits her. But the word “will suit” has the meaning of going somewhere, to the place of direction, destination, also, is suitable. Due to ignorance of other meanings of the word, naturally, it can be translated incorrectly. In this case, if each of the words is explained with examples, it will be more memorable and will increase the student’s interest.

There are many such examples. During the lesson, writing new words on the board or briefly introducing them with translations is boring and ineffective for the student. When introducing these words, it is necessary to consolidate them by making sentences with their participation and repeat them in several lessons.

Increasing the vocabulary of students means enriching the content of speech. This is done not by increasing the number of words, but by "intensifying" the existing stock. In this case, of course, knowledge of phraseology is of great importance. The correct use of phrases in their place also enriches speech. With phrases in Russian.

In the process of familiarization, it is more effective to use interesting methods, not limited to explaining their meaning. First of all, the story of their origin arouses great interest and broadens horizons.

To improve the acquisition of new words, to enrich the vocabulary, you need to use various games, with idioms you can play various linguistic games, for example: "Wheel of Fortune" Fortuna - in Roman mythology, the goddess of blind chance, happiness and misfortune. She was depicted with a blindfold on her eyes, standing on a ball or wheel.

The ball or wheel symbolizes instability, unreliability, constant changeability of Fortune. The expression "wheel of Fortune" is used in the meaning: "chance, blind luck".

"Scapegoat". Religious books tell us that the ancient Jews had a special ritual. On the day of absolution, the high priest would lay both hands on the head of a live goat. This was a sign of placing all the sins of the people on the goat. The goat, thus cursed, was driven out into the desert. It is quite clear that a scapegoat is a person who is blamed for someone else's guilt.

"The Fourth Odd One Out" - Find the fourth odd phraseological unit in each column; explain why it is "odd" and make up a sentence with it.





- 1) a dime a dozen
- 2) a dime a dozen, a cat cried, headlong, a million miles, at a snail's pace, not a cat could fall in the blink of an eye
- 3) word for word
- 4) to get into trouble, exactly the same, to get to seventh heaven, it's written on water, to get into trouble, not a mosquito can get its nose into it to get into trouble.

And so, properly organized vocabulary work in class arouses interest in the language. Regular vocabulary work helps students increase their vocabulary, develop speech and, in general, helps to form literacy skills. Words that are repeated regularly are strengthened in memory and help to apply them in practice.

The need to significantly improve the quality of communicative competence developed in the study of Russian as a foreign language requires the use of new technologies and teaching aids.

Literature

1. Badalova, B. T. (2019). Literature as a Method of Teaching a Foreign Language. *Young Scientist*, (6), 197-198.
2. Ziyadullaeva, N. G., & Takhirovna, M. T. (2020). Teaching Students to Innovative Cluster-Based Pedagogical Activities. *Suz Sanati*, (3).
